



## SOLIQ MA'MURCHILIGINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR TAJRIBASINI O'RGANISH

---

*Bank-moliya akademiyasi magistranti*  
**Rustamova Feruza Karim qizi**  
[Rustamova\\_feruza@gmail.com](mailto:Rustamova_feruza@gmail.com)

**Annatsiya:** Ushbu ilmiy maqola ishi rivojlangan xorijiy davlatlarning soliq ma'muriyatchiligini samarali tashkil etish sohasidagi ilg'or tajribalarini o'rganish va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlariga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ilg'or tajribalarning asosiy jihatlarini aniqlash va ulardan O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligida foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** xorijiy mamlakatlar, davlat boshqaruvi, byudjet va soliq munosabatlari, byudjet va soliq siyosati, soliq yuki, soliq ma'muriyati, xorijiy tajriba, boshqaruv usullari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy resurslar.

**Annotation:** The work of this scientific article is devoted to the possibility of studying the advanced experience of developed foreign countries in the field of effective organization of tax administration and its application in the conditions of Uzbekistan. The main purpose of the study is to identify the main aspects of advanced experiments and develop recommendations for their use in the tax administration of Uzbekistan.

**Keywords:** foreign countries, public administration, budget and tax relations, budget and tax policy, tax burden, Tax Administration, foreign experience, management methods, socio-economic development, financial resources.

### **Kirish**

Samarali soliq ma'muriyatchiligi davlat dasturlari va ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan soliq tushumlarini yig'ishni ta'minlash orqali mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Globallashtirish va kapital harakatchanligini oshirish sharoitida investitsiyalarni jalb qilish, raqobatbardoshlikni saqlash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun samarali soliq ma'muriyati ayniqsa muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tajribalari asosida soliq siyosati ularni optimallashtirish va jahon boshqaruvining zamonaviy sharoitlariga moslashish maqsadida turli davlatlar tajribalari o'rganiladi. Ushbu yo'nalishlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mavjud moliyaviy resurslarni xolisona baholash imkonini beradi. Soliq majburiyatlari bajarilishini ta'minlash usullari va xalqaro tajriba davlatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalari, qisqartirish uchun zaxiralarni aniqlash byudjet xarajatlari va jamiyatdagi



solliq ziddiyatlarini barqarorlashtirish jarayonlarini optimallashtirishni osonlashtiradi.

### **Adabiyotlar sharhi**

Solliq ma'murchiligini samarali tashkil etishda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish, ahamiyati va roli bo'yicha asosiy tadqiqotlar o'tmishdagi taniqli olimlarning asarlarida o'z aksini topgan: J. Keyns, J. Milla, V. Petti, D. Rikardo, A. Smit va boshqalar, zamonaviy xorijiy nazariyotchilarning yetakchi ishlanmalari va T. Dai, A. Laffer, R. Lukas, R. Musgrave, A. Pigou, P. Samuelson, R. Solow kabi amaliyotchilar, shu bilan birga Stiglitz, M. Freemanlar solliq tizimida turli tajribalarni qo'llash bo'yicha ko'plab tajribalar o'rganib bugungi solliq tizimi rivojlanishiga yuksak iz qoldirgan. Solliq tizimida davlat boshqaruvini takomillashtirish masalalari bo'yicha Y. Ivanov, I. Lunina, A. Krisovatoy, A. Mayburov, A. Pogorletskiy asarlarida byudjet-solliq sohasida xorijiy tajriba va jahon rivojlanish tendensiyalari ko'rib chiqilgan.

Solliq tizimini davlat boshqaruvining nazariy va amaliy jihatlarini yoritishda muhim ilmiy yutuqlarga qaramay, byudjet va solliq sohasida quyidagilar muammolar mavjud:

Xorijiy tajribani o'rganish va undan amaliy foydalanishning dolzarb zarurati ichki va tashqi muhitning beqarorligi sharoitida solliq ma'murchiligi va solliq munosabatlarini optimallashtirish hamda uyg'unlashtirish maqsadlari I. Tkachenko, V. Sinchaka va boshqalar tomonidan tadqiqot ko'rib chiqilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu maqolani yozishda tadqiqot natijalarimizdan ko'zlagan samarani olishimiz uchun, albatta tadqiqot mavzusi doirasida yetarlicha sifat va miqdoriy ma'lumotlar to'plashimiz kerak bo'ladi. Bu sifat va miqdoriy ma'lumotlarni birlamchi va ikkilamchi manbalardan to'playmiz. Solliq ma'murchiligini samarali tashkil etish xaqida yurtimiz va chet el olim, tadqiqotchilari tomonidan yaratilgan adabiyotlarning elektron, hamda bosma nashrlarini to'plash tadqiqot mavzumizni nazariy jihatlarini yoritib berish uchun kerak bo'ladi.

### **Tahlil va natijalar**


O'zbekiston Respublikasi Solliq tizimini isloh qilish, hozirda kun tartibidagi asosiy vazifalardan biri sifatida turibdi. Xossatan Prezident Sh.M. Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Hozirgi paytda solliq siyosatini amalga oshirishda keskin chora-tadbirlardan voz kechishni, davlat tizmining uzluksiz faoliyat yuritishi uchun byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlash, yirik investitsiya loyihalarini iqtisodiyotimizga kiritmoqchi bo'layotgan investorlar uchun qulay solliq tizimini yaratish, barcha biznes toifalari uchun solliqqa tortishni soddalashtirish va solliq yukini kamaytirish, shu asosda ishlab chiqarishni, solliqqa tortiladigan bazani kengaytirish hamda kichik korxonalar ham qo'shilgan qiymat solig'i to'lashga o'tishini rag'batlantirish zarur" (PF-6098) deya ta'kidlagan edilar[1].



Soliq tizimini isloh qilish uni har tomonlama rivojlantirish borasida davlatimiz rahbari bir qancha qarorlar imzoladilar. Bunda asosiy g'oya tenglik, soddalik, aniqlik va samaradorlik prinsiplariga asoslangan yangi soliq tizimini yaratishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ma'lumki bugungi kunda mamlakatimiz har tomonlama rivojlangan, katta iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lgan demokratik davlatga aylanib bormoqda. Bu borada davlat rahbari tomonidan ilgari surilayotgan ilg'or g'oya va tashabbuslar asosida mamlakatimizda soliq sohasida ham mutlaqo yangi bo'lgan adolatli, shaffof va izchil hamda hamkorlik tamoyillariga amal qiladigan samarali tizim yaratildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad xo'jalik yurituvchi sub'ektlar zimmasidagi soliqlar yukini kamaytirib, fuqarolar daromadini oshirish, pirovardida ishlab chiqarishni rivojlantirish va iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga izchil soliq ma'muriyatchiligini joriy etish orqali erishilmoqda[2].

Ijobiy o'zgarishlar natijasi o'laroq erishilgan natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, Soliq organlari tomonidan yig'ilgan yillik tushumlar 2021-yilda 127,9 trln. so'mga yetgan edi. Bu natijani o'tgan, 2020 yil bilan solishtiradigan bo'lsak bu ikki yilda yig'ilgan tushumlar farqi 24,3 trln. so'm ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu natija 2022-yilda soliq tushumlarining umumiy qiymati bo'yicha 23.5 foizga oshganligini anglatadi. Yana bir asosiy ko'rsatkich yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi bo'yicha tushumlar hisobini tahlil qiladigan bo'lsak 2021-yilda bu ko'rsatkich 82,3 trln. so'mni tashkil etib, 14,6 trln. so'mlik o'sishga erishilgan. Bojxona organlari ma'muriyatchiligidagi tushumlar esa 2021-yillik hisobga ko'ra 33.2 trln. So'mga yetgan va 2020-yildagi tushumlarga nisbatan 34.5 foizga ortganligini ko'rishimiz mumkin[3].

Yana bir ijobiy o'zgarish sifatida 2022-yilgi erishilgan natijalarni tahlil qilishimiz mumkin. Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, respublika bo'yicha 2022-yilda soliq organlari tomonidan 148,4 trln so'm tushumlar ta'minlangan (4.1-rasm). Bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan (20,4 trln so'm) 16% ko'pni tashkil qilgan.



**4.1-rasm. Soliq organlarining 2022-yilgi byudjet tushumlari statistikasi. (manba, Soliq.uz)[4].**

Yuqorida keltirilgan rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki soliq tushumlarining barcha turlari bo'yicha 2022-yilga natijalar ijobiy tomonga o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, soliq turlari kesimida:

- mol-mulk solig'idan 4 trln so'm undirilib, 2021-yilga nisbatan 1,6 trln so'mga yoki 63%;
- yer solig'idan 5,3 trln so'm undirilib, 2021-yilga nisbatan 1,2 trln so'mga yoki 30%;
- aylanmadan olinadigan soliqdan 2,5 trln so'm undirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 863 mlrd so'mga yoki 52%;
- QQSdan 32,8 trln so'm undirilib, 2021-yilga nisbatan 7,2 trln so'mga yoki 28%;

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan 24,3 trln so'm undirilib, 2021-yilga nisbatan 5,4 trln so'mga yoki 28% o'sishga erishildi.

Shuningdek hududlar kesimida soliq tushumlari bo'yicha Toshkent shahri 21,3 trln so'm bilan yetkachilik qilmoqda. Hududda tushumlar ko'rsatkichi 2021-yilga nisbatan 38%ga oshgan[5]. Respublikamiz hududiy soliq organlari hisobidagi



tahlilda ham ko‘rishimiz mumkinki, barcha hududlarda 2022-yilda ijobiy o‘zgarishlarga erishilgan (4.1-jadval).

4.1-jadval.

**Soliq tushumlarining hududiy kesimdagi dinamikasi.**

Hududlar	Soliq tushumlari	2021-yilga nisbatan o‘shish
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2,4 trln so‘m	33%
Xorazm viloyati	2,5 trln so‘m	28%
Andijon viloyati	2,9 trln so‘m	23%
Farg‘ona viloyati	4,3 trln so‘m	33%
Namangan viloyati	2,8 trln so‘m	26%
Sirdaryo viloyati	1,2 trln so‘m	31%
Jizzax viloyati	1,8 trln so‘m	34%
Samarqand viloyati	4,2 trln so‘m	34%
Qashqadaryo viloyati	3,6 trln so‘m	23%
Surxondaryo viloyati	2,4 trln so‘m	26%
Navoiy viloyati	1,6 trln so‘m	21%
Buxoro viloyati	3,2 trln so‘m	31%
Toshkent viloyati	5,3 trln so‘m	25%
Toshkent shahri	21,3 trln so‘m	38%
Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo DSI	88,3 trln so‘m	7%

Jadval ma’lumotlarini tahlil qilar ekanmiz ko‘rishimiz mumkinki hududlar bo‘yicha erishilgan natijalar o‘rtacha hisobda 30 foiz miqdorida o‘shishga erishilgan. Bu o‘zgarishlar zamirida albatta, soliq tizimi sohasida olib borilayotgan odilona siyosat va izchil amalga oshirilayotgan ishlar yotadi[6].

Ma’lumki, tadbirkorlik muhitini yaratish aholi bandligini ta’minlash va turmush sharoitini yaxshilash bevosita amalga oshirilayotgan ijobiy soliq islohotlariga






bog'liq bo'ladi. Soliq tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida 2022-yilda mamlakatimiz hududida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar soni 8.1 foizga o'sishga erishildi (4.2-rasm).



4.2-rasm. 2022-yil davomida yuridik shaxslar soni dinamikasi.(Soliq.uz).

Rasm ma'lumotlarini tahlil qilar ekanmiz ko'rishimiz mumkinki, yuridik shaxslar soni sohalar kesimida ham hududlar kesimida ham o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Hududlar kesimida yuridik shaxslar o'sishi dinamikasini tahlil qilsak, Xorazm viloyati 11.6 foizlik o'sish dinamikasi bilan yetakchilik qilmoqda. Hududiy kesimdagi eng kichik o'sish dinamikasi esa 5 foizlik o'sish bilan Buxoro viloyatiga to'g'ri kelgan[7].

Yuridik shaxslarning ko'payishi nafaqat hududiy kesimda balki, sohalar kesimida ham ijobiy o'zgarishlarga uchragan. Rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, sohalar kesimida eng katta o'sish axborot va aloqa sohasida bo'lib 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 17.5 foizga ortib sohalar kesimida yetakchilikka erishgan. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohaları 5.3 foizlik o'sish sur'ati bilan eng past natijaga erishgan.



4.3-rasm. 2022-yil, yanvar-dekabr holatiga ko'ra yakka tartibdagi tadbirkorlar soni dinamikasi (Soliq.uz).


Sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi o'laroq so'nggi yillarda mamlakatimiz hududida nafaqat yuridik shaxslar soni, balki yakka tartibdagi tadbirkorlar soni ham jadallik bilan ortib bormoqda. 4.3-rasmda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilib ko'rishimiz mumkin 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra mamlakatimiz hududida jami yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 238 188 tani tashkil etib, bu 2022-yil 1-yanvar holatiga qaraganda (217 646) 9.4 foizga ortganligini ko'rishimiz mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar dinamikasini sohalar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra hunarmandchilik sohasidagi yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 19.3 foizlik o'sish bilan sohalar ichida yetakchilik qilgan. Bundan tashqari chakana savdo, maishiy xizmat ko'rsatish, va boshqa sohalarda ham o'sish sur'atlari kuzatilib eng past ko'rsatgich sifatida boshqa sohalar kesimidagi yakka tartibdagi tadbirkorlar sonini keltirishimiz mumkin. Undan tashqari yakka tartibdagi tadbirkorlar soni mamlakatimiz hududiy kesimida ham ijobiy sur'atlarda o'sgan. Bu borada 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 29 152 ta yakka tartibdagi tadbirkorlar soni bilan Toshkent shahri kutilganidek yetakchi bo'lsa, Samarqand viloyati ham yaqin 28 618 nafar yakka tartibdagi tadbirkorlar soni bilan ikkinchi o'rinni egallagan. Mamlakatimiz hududiy kesimida eng past o'sish sur'ati 6408 nafa



yakka tartibdagi tadbirkorlar soni bilan Sirdaryo viloyatiga to‘g‘ri kelgan. Bu o‘zgarishlarning ijobiy tarafga qarab o‘shishi soliq tizimidagi ishlar samarasi sifatida qaraladi. Bu o‘zgarishlar albatta davlat byudjeti daromadlarining o‘shishiga va byudjetga soliq to‘lovchilar soning oshishiga sabab bo‘ladi[8].

Ma‘lumki yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining ortishi mamlakat byudjetiga qo‘shilgan qiymat solig‘ining ortishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa so‘nggi yillarda ma‘lumotlar tahlilidan ham ko‘rdikki soliq to‘lovchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni sezilarli sur‘atlarda o‘shib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida davlat byudjetiga qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari sonining ortishiga sabab bo‘lmoqda (4.4-rasm).



4.4-rasm. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari dinamikasi (Soliq.uz).

Rasm ma‘lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, 2024-yil 1-mart holatiga ko‘ra yutimiz hududida 192 293 ta QQS to‘lovchilari mavjud. Bu ko‘rsatgich 2023-yil 1-mart holadida 175 997 tani tashkil etgan bo‘lib, joriy holatda 9.3 foizga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Sohalar kesimini tahlil qiladigan bo‘lsak, qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilarining o‘shishi bo‘yicha transport sohasi yetakchilik qilmoqda. Transport sohasidagi QQS to‘lovchilari soni 2023-yil mart oyining boshida 5 579 tani tashkil etgan bo‘lsa, ularning soni 2024-yil 1-mart holatida 7074 tani tashkil qilib bir yillik o‘shish sur‘ati 26.8 foizni tashkil qilgan. Solhalar kesimidagi eng past ko‘rsatgich qishloq xo‘jaligi sohasiga tog‘ri kelgan bo‘lib, 2024-yil holatiga ko‘ra 47





248 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatgich 2023-yil 1-mart holatiga ko'ra 45 722 tani tashkil etgan va 3.3 foizlik o'sish sur'ati bilan eng past natija ko'rsatgan[8].

Hududlar kesimida QQS to'lovchilari sonining o'zgarish dinamikasini tahlil qiladigan bo'lsak, 12.6 foizlik o'sish dinamikasi bilan Toshkent viloyati yetakchilik qilgan. Toshkent viloyatida bu soliqni to'lovchilari soni 14 995 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra bu ko'rsatgich 16 890 tani tashkil qilgan. O'sish dinamikasining eng past ko'rsatgichi esa Xorazm viloyatiga to'g'ri kelgan bo'lib, bu o'zgarish 5.5 foizni tashkil qilgan. 2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra Xorazmda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari soni 8 142 tani tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 2024-yilda 8 591 nafarni tashkil qilgan. Undan tashqari barcha hududlar kesimida ham qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari soning o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Bu albatta, yuqorida aytilganidek, davlat byudjeti daromadlarining ortishi va aholi turmush sharoitining yaxshilanishiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

### XULOSA

Tadqiqotda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda soliq ma'muriyatchiligini samarali tashkil etish tahlil qilindi va ularning ilg'or tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari o'rganildi. Tadqiqot natijalari bir qator muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Birinchidan, soliq ma'muriyatchiligini samarali tashkil etish mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jarayonlarni avtomatlashtirish, qonunchilikni takomillashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish kabi ilg'or tajribalardan foydalanish soliq tushumlarini oshirish, soliq to'lashdan bo'yin tovlashni kamaytirish va soliq adolatliligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, soliq ma'muriyatchiligini muvaffaqiyatli tashkil etish nafaqat qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish va yangi texnologiyalarni joriy etish, balki kadrlar malakasini oshirish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish va aholini o'qitishni ham o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. soliq savodxonligi sohasida.

Uchinchidan, O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligining bugungi holatini tahlil qilish va xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini baholash asosida mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligi tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqildi. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi soliqlarni undirish samaradorligini oshirishga, tadbirkorlik subyektlari va aholi uchun soliq risklari darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot rivojlangan mamlakatlarning soliq ma'muriyatchiligi sohasidagi ilg'or tajribasini o'rganish va uni O'zbekistonning o'ziga xos sharoitlariga moslashtirish muhimligini tasdiqlaydi. Bu mamlakatda mavjud muammolarni bartaraf etish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish imkonini beradi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Финансово-кредитный энциклопедический словарь: определение термина «налоговое администрирование»/ М.: Финансы и статистика. Под общ. ред. А.Г. Грязновой, 2004г.
2. Анисимов А. Л. Эффективность налогового администрирования в налоговой системе Российской Федерации //Известия Уральского государственного экономического университета. – 2015. – №. 1 (57).
3. Алиев Б. Х., Алимирзоева М. Г., Ильясбеков И. А. Совершенствование налогового администрирования в современных условиях //Экономика и предпринимательство. – 2017. – №. 7. – С. 555-559.
4. Дорофеева Н. А. Налоговое администрирование: Учебник / Н. А. До рофеева, А. В. Брилон, Н. В. Брилон. — М.: Издательско- торговая корпорация «Дашков и К», 2013. — 296 с
5. Мишустин М. В. Совершенствование инструментов налогового администрирования по обеспечению стабильных доходов государственного бюджета //Экономика. Налоги. Право. – 2014. – №. 4
6. Бисултанов, А. Н. Эффективное налоговое администрирование как неотъемлемое условие повышения уровня собираемости налогов в стране / А. Н. Бисултанов. — Текст : непосредственный // Экономика, управление, финансы : материалы IX Междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, октябрь 2018 г.). — Санкт-Петербург : Свое издательство, 2018. — С. 19-24.
7. Новоселов К. В. Перспективы развития риск-менеджмента в налоговой сфере //Экономика. Налоги. Право. – 2017. – №. 6. – С. 29-38.
8. Александрова Н. В. Повышение эффективности и качества налогового администрирования в регионе // Инновационное развитие экономики. — 2017. — № 2(38). — С. 157–162.
9. Берлизев Р.Н., Виноградова К.О. Совершенствование налогового администрирования в РФ как инструмента управления развитием социально - экономических систем //Динамика взаимоотношений различных областей науки в современных условиях: сборник статей Международной научнопрактической конференции. - 2018. - С. 59-63.
10. Изотов А.В. Направления повышения эффективности налогового администрирования в РФ //Проблемы и перспективы становления гражданскоправового общества. Сборник статей по итогам Международной научнопрактической конференции. - 2018. - С. 14-16
11. Оспанов М.Т. Налоговая реформа и гармонизация налоговых отношений. СПб: УЭФ, 1997. 488 с.
12. Перонко И.А. Методы и формы налогового администрирования // Налоговый вестник. 2000. № 11. С. 9–12.